O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

QO'QON UNIVERSITETI

"TASDIQLAYMAN"
Qo'qon universiteti
Akademik ishlar
bo'yicha prorektor
J.Kambarov
"__" ________ 2025-yil

## Bitiruvchi kurs talabalari uchun majburiy fanlardan yakuniy attestatsiyasi sinovi

# DASTURI



60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi

Qo'qon-2025

Ushbu dastur 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari yakuniy attestatsiya sinovlarini tashkil etish uchun mo'ljallangan.

Ushbu dasturda 60310100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun yakuniy attestatsiyani o'tkazish tartibi, savollari, baholash mezonlari va o'quv adabiyotlari hamda elektron ta'lim resurslari keltirilgan.

| | |
|---|---|
| **Tuzuvchilar:** | X.Y.Rasulov – Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi mudiri; |
| | I.Farmonov – Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi; |
| | D.Sh.Abdullajonov – Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi o'qituvchisi; |
| | X.M.Gafurov – Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasi katta o'qituvchisi; |
| **Taqrizchi:** | J.Kambarov – KU, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent. |

Ushbu dastur "__________" kafedrasida muhokama etilgan (2025 yil 08 Sentabr № 2 -sonli bayonnoma).

"Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrasi mudiri ______ (imzo) X.Rasulov

Turizm va iqtisodiyot fakulteti dekani ______ (imzo) J.Turg'unov

Akademik ishlar departamenti boshlig'i ______ (imzo) X. Gafurov

**Yakuniy attestatsiya sinovi dasturi Qo'qon universiteti kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.** 2025-yil "__"______ dagi____-sonli bayonnoma



# 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun majburiy fanlaridan yakuniy attestatsiyasi sinovi

## DASTURI

60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun majburiy fanlardan yakuniy attestatsiyasi sinovi **"Mikroiqtisodiyot"**, **"Iqtisodiy rivojlanish"**, **"Raqamli iqtisodiyot"**, **"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi"**, **"Iqtisodiy siyosat"** fanlaridan test shaklida o'tkazilishi belgilandi.

60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun "**Mikroiqtisodiyot**", **"Iqtisodiy rivojlanish"**, **"Raqamli iqtisodiyot"**, **"Iqtisodiy ta'limotlar tarixi"**, **"Iqtisodiy siyosat"** fanlaridan o'tkaziladigan yakuniy attestatsiya sinovining asosiy test

## SAVOLLARI

- Talabalarga iqtisodiyotning individual agentlari, masalan, uy xo'jaliklari, kompaniyalar va bozorlardagi iqtisodiy qarorlarni o'rganadigan iqtisodiy nazariyadir. Mikroiqtisodiyot fanni o'qitishning maqsadlari, asosan, talabalarga iqtisodiy jarayonlar, qaror qabul qilish mexanizmlari va resurslarni samarali taqsimlashni tushuntirishga qaratilgan xamda ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.
- Turli bozor tuzilmalari (mukammal ra competition, monopoliya, oligopoliya) va ularning iqtisodiy samaradorligi;
- Talab va taklifning iqtisodiy tizimdagi roli, ularning o'zaro ta'siri, narxlar va miqdorlarni qanday belgilanishini o'rganish;
- Iste'molchi va ishlab chiqaruvchilarning manfaatlarini, ularning xarajatlar, foyda va narxlar bilan bog'liq qarorlarini tahlil qilish;
- Bozorda turli iqtisodiy agentlar orasidagi o'zaro ta'sirlar va bu ta'sirlarning iqtisodiy natijalar.
  Bozor ma'lumotlarini, talab va taklifni, xarajatlarni va foydalarni tahlil qilish;
- Talab va taklif egri chiziqlari, xarajatlar va ishlab chiqarish grafiklarini tahlil qilish;
- Talab va taklif, ishlab chiqarish xarajatlari va foyda modellari;
- Qarorlar qabul qilishda optimal resurs taqsimoti va xarajatlarni minimallashtirish.

### 1.Mikroiqtisodiyot fanidan YAS uchun savollar bazasi

1. Mikroiqtisodiyot nimani o'rganadi?
2. Mikroiqtisodiyot fani quyidagilardan qaysi biri bilan shug'ullanadi?
3. Qaysi iqtisodiy subyekt mikroiqtisodiyot fanida o'rganiladi?
4. Quyidagilardan qaysi biri mikroiqtisodiyot fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi?
5. Mikroiqtisodiyot fanida qaysi omil tovar narxlariga ta'sir ko'rsatadi?
6. Mikroiqtisodiyot fanining o'rganish uslublaridan qaysi biri korxonalar o'rtasidagi raqobatni tahlil qilishda ishlatiladi?
7. Mikroiqtisodiyot fanida "muvozanat modeli" nima bilan bog'liq?
8. Bozorning iqtisodiy mohiyati nima?
9. Quyidagilardan qaysi biri bozorning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi?
10. Tranzaksion xarajatlar deganda nimani tushunasiz?
11. Bozordagi narx qanday shakllanadi?
12. Noyob ne'matlar nima?
13. Qaysi ne'matlar takror ishlab chiqarilmaydigan resurslarga kiradi?
14. Bozor tizimida noyob ne'matlarni qanday tamoyillar asosida taqsimlash amalga oshiriladi?
15. Iqtisodiy ehtiyoj nima?
16. O'zaro bir-birini to'ldiruvchi ne'matlarga misol bo'la oladi:
17. Alternativ xarajatlar nimani anglatadi?
18. Quyidagilardan qaysi biri tadbirkorlik qobiliyati sifatida qaraladi?
19. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegaralari nimani ko'rsatadi?
20. Noreal ehtiyoj qanday ehtiyojga misol bo'la oladi?
21. Iste'molchilarning asosiy maqsadi nimadan iborat?
22. Tovarlar aylanmasi modelida uy xo'jaliklari nima qiladi?
23. Tovarlar aylanmasi modelidagi ikki asosiy o'zgaruvchilar qanday ataladi
24. Bozorda talab va taklif o'zaro qanday bog'liq?
25. Tovarlar bozorida muvofiqlashtirish masalasini hal qiluvchi asosiy vosita nima?
26. Tranzaksion xarajatlar nimani anglatadi?
27. Narxning oshishi iste'molchilarga qanday signal beradi?
28. Talab deganda nimani tushunasiz?
29. Taklif chizig'i nimani ko'rsatadi?
30. Talab chizig'i qanday yo'nalishda harakatlanadi?
31. Bozorda muvozanat nuqtasi qanday aniqlanadi?
32. Qaysi bir holatda taklif oshishi kutiladi?
33. Talab va taklif grafigida absissa o'qi nimani ifodalaydi?
34. Narx oshganda talab va taklif qanday o'zgaradi?
35. Xom ashyo narxining pasayishi bozordagi taklifga qanday ta'sir qiladi?
36. Quyidagilardan qaysi biri taklifga ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi?
37. Iste'molchilarning daromadi oshishi talabga qanday ta'sir qiladi?
38. Bir-birini to'ldiruvchi tovarlarning narxi oshganda talab qanday o'zgaradi?



39. Quyidagilardan qaysi biri bir-birini o'rnini bosuvchi tovarlarga misol bo'la oladi?
40. Talab chizig'i qachon o'ngga siljiydi?
41. Taklif va talabning bir vaqtning o'zida o'ngga siljishi bozorda qanday natija beradi?
42. Raqobatga ko'ra bozor turlari qanday bo'ladi?
43. Mukammal raqobatli bozorda qanday turdagi raqobat bo'ladi?
44. Mahsulotga talab elastikligi eng yuqori bozor turi?
45. P=MC. Bu holat qaysi bozor turiga hos?
46. Mahsulotga talab elastikligi eng past bozor turi?
47. Umumiy daromad formulasini ko'rsating?
48. O'rtacha daromad formulasini ko'rsating?
49. Foydani maksimallashtirish shartini toping?
50. Mehnatga talab ish haqiga qanday bo'g'langan?
51. Mehnat taklifi ish haqiga qanday bo'g'langan?
52. Mehnatning chekli daromadliligi formulasini toping?
53. Firma ishchilarni qaysi holatgacha yollashi mumkin?
54. Mehnat bozoridagi monopsoniyada nechta ish beruvchi bo'ladi?
55. Minimal ish haqi kim tomonidan o'rnatiladi?
56. Yuqori malakali ishchiga to'lanadigan ortiqcha ish haqi nima deyiladi?
57. Kapitalning ma'naviy eskirishi nima?
58. Iste'molchilar o'rtasidagi raqobat qanday maqsadga qaratiladi?
59. Sotuvchilar o'rtasidagi raqobat qanday maqsadga qaratiladi?
60. Qanday monopoliya huquqiy cheklov va ta'qiqlar bilan himoyalangan bo'ladi?
61. Qanday monopoliya alohida himoyalanmagan bo'ladi?
62. Haridorning monopoliyasi nima deyiladi?
63. Mukammal raqobatli bozorda qaysi shart bajariladi?
64. Sof raqobatli bozorga qaysi misol mos keladi?
65. Monopolistik raqobatli bozorga qaysi misol mos keladi?
66. Narxlar diskriminatsiyasida...
67. Narx diskriminatsiyasining nechta darajasi bor?
68. Qaysi darajadagi narx diskriminatsiyasida ayrim tovarlarning sotib olish hajmi qisqaradi?
69. Qaysi darajadagi narx diskriminatsiyasida haridorlar guruhlarga bo'linadi?
70. ...da iste'molchilardan tovarni sotib olish huquqi uchun to'lov undiriladi?
71. Ikki qismli tarifning qaysi turida iste'molchi yutug'I to'liq foyda shaklida o'zlashtiriladi?
72. 2T*+(P*-MC)(Q1+Q2) Bu formula ikki qismli tarifning qaysi shaklida foydani hisoblaydi?
73. Kirish to'lovi(T)ning oshishi tashrif buyuruvchilar soniga qandat ta'sir qiladi?

74. Oligapoliya narxlar janggida qaysi shartgacha davom etadi?

75. Kurno muvozanati nechta ishlab chiqaruvchi o'rtasida optimal echimni ko'rsatadi?

76. Oligopolistik bozorda talab chizig'ining sinishi qaysi siyosat bilan bog'liq?

77. Avval yetakchi firma keyin izdosh firmalar ketmaket harakatlanadigan model qaysi?

78. P=MC shartida firmaning foydasi qancha bo'ladi?

79. Oligapolistik narx raqobatidaP1>Pe bo'lganida P1 narx egasi bo'lgan firma qancha mahsulot sotadi?

80. Xufiyona kelishuv modelida firmalar …

81. Ikki firmaning duopol bozordagi kelishuvi nimani yuzaga keltiradi?

82. Extimollikning qanday turlari bor (F.Nayt)?

83. Tanganing bir tomoni tushishi extimoli ½ ekanligi qanday extimollik?

84. Biznesga hos bo;lgan nisbatan ko'p uchraydigan extimollik qaysi?

85. Haqiqiy natija va kutilayotgan natija o'rtasidagi farq nima?

86. Tavakkalchilikka ko'ra nechta turli insonlar bo'ladi?

87. Iste'moldagi tavakkalchilikning qaysi turida chekli naflilik (MU) deyarli o'zgarmaydi?

88. Tavakkalchilikning pasayishi bilan bog'liq bo'lgan kelajakda bo'ladigan shartnomalar tuzish turi qaysi?

89. Bozor sub'eklari orasida muhim axborotga ega bo'lgan va bu axborot bo'lmaganlarning mavjudligi qanday holat deyiladi?

90. Bozordagi oldi sottidan olinadigan, lekin narxda ko'rinmagan harajat yoki foyda nima?

91. Tashqi samara nechta turga bo'linadi?

92. Manfiy tashqi samara fomulasi?

93. Manfiy tashqi samara formulasi?

94. Tashqi ta'sirlarni yumshatish bo'yicha A.S.Pigu nimadan foydalanishni taklif qilgan?

95. Mukammal raqobatli bozorda hususiy vaijtimoiy harajatlar bir-biriga tengligini kim aytgan?

96. Kouz teoremasi tomonlar soni nechta bo'lganida o'rinli bo'ladi?

97. Sof ijtimoiy ne'matning necha xil hususiyati bor?

98. Iqtisodiy mazmuniga ko'ra qanday harajatlar bor?

99. Resursni jalb etish manbasiga ko'ra qanday harajatlar bor?

100. Noishlab chiqarish harajati qaysi qatorda?



Iqtisodiy rivojlanish fanining maqsadi-iqtisodiy o'sish va rivojlanish jarayonlarini, ularning asosiy omillari va mexanizmlarini o'rganish, shuningdek, iqtisodiy farovonlikka erishish uchun zarur bo'lgan strategiyalarni tahlil qilish, rivojlanishning turli aspektlarini o'rganish orqali, davlatlar va jamiyatlarning farovonligini oshirish, barqaror o'sishni ta'minlash, hamda iqtisodiy muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan ilmiy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

### 2. Iqtisodiy rivojlanish fanidan YAS uchun savollar bazasi

1. Adam Smitning "Xalqlar boyligi" asari qachon yozilgan?
2. "Unda natural yoki mayda tovar xo'jaligi hukmron bo'ladi." Ushbu ta'rif qaysi ijtimoiy iqtisodiy tuzum uchun hos?
3. Iqtisodiy rivojlanish nisbatan kuchliroq rag'batlantiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy tizim qanday nomlanadi?
4. Kambag'allik uchun umumiy ta'rif qanday?
5. Iqtisodiy o'sishning nechta turi mavjud va ular qaysilar?
6. Quyidagi omillardan qaysi biri iqtisodiy o'sish omillariga kirmaydi?
7. Ochiq axborot manbalariga ko'ra statistik tahlillar iqtisodiy o'sish va baxt indeksi orasidagi boglanish koeffitsenti qanday ishoraga ega. (Grafik shakldan kelib chiqib hulosa bering)?
8. Kambag'allikni kamaytirish yo'llariga qaysi siyosat kiradi?
9. Iqtisodiy rivojlanishning asosiy maqsadi nimadan iborat?
10. Rivojlanayotgan mamlakatlarga hos ko'rsatkichlar(nisbiy) qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
11. Aholi pul daromadlariga qaysi qatorda to'g'ri misol berilgan?
12. Nominal daromad bu-?
13. Fuqaroning ihtiyorida bo'lgan daromad bu-?
14. Aholining nominal daromadi manbasi ko'rsating?
15. Aholi turmush darajasining BMT tomonidan tavsiya etilgan ko'rsatkichlari tizimiga qanday guruhlarni o'z ichiga oladi?
16. …aholining yuqori ta'minlangan yoki «boy» qatlamining mavjud bo'lishini taqozo qilib, ularga aholining yuqori sifatli tovar va xizmatlar xarid qilishga layoqatli bo'lgan juda oz miqdori kiradi?
17. Turmush tarzi deganda nima tushuniladi?
18. Turmush tarzi inson hayot faoliyatining qaysi jihatlarini qamrab oladi?
19. Xalqaro mehnat taqsimoti qaysi variantda to'g'ri izohlangan?
20. Xalqaro iqtisodiy munosbatlarga qaysi jarayon kirmaydi?
21. Jahon infrastrukturasi nima?

22. Iqtisodiy o'sish bu ?

23. Iqtisodiy rivojlanish nisbatan eng zaif rag'batlantiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy tizim qanday nomlanadi?

24. Kambag'allik qanday ta'rif to'g'ri kelishi mumkin?

25. Iqtisodiy o'sishning mahsulot va xizmatlar birligiga ketadigan xarajatlarni kamaytirish usuli qaysi?

26. Mehnatga haq to'lash kasbga emas, balki lavozimga biriktirilishining natijasi qanday bo'lishi kuzatiladi?

27. Lorenz egri chizig'i qanday iqtisodiy holatni ifodalaydi?

28. Kambag'allikni o'lchashda qaysi ko'rsatkichdan foydalaniladi?

29. Tomas Robert Maltusning aholi o'sishiga bog'liq qarashlari qanday edi?

30. Iqtisodiy o'sishning mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishda qo'shimcha resurslar jalb qilish hisobiga orttirish usuli qaysi?

31. Aholini, avlodlar almashuvi jarayonlari va ularning qonuniyatlar o'rganuvchi soha?

32. Gini koeffitsentining nolga tengligi iqtisodiy holatni ifodalaydi?

33. Gini koeffitsentining bir ga tengligi iqtisodiy holatni ifodalaydi?

34. Iqtisodiy o'sish samaradorligi nima?

35. Ishlab chiqarishdagi sarflar qanday guruhlarda o'rganiladi?

36. Kambag'allikni keltirib chiqaruvchi bosh omil yoki omillar nimadan iborat (A.Banerji, E.Dyuflo va M.Kramerga ko'ra)?

37. Ijtimoiy sohaning nobaqarorlashuviga olib kelgan jihatlar nimadan iborat?

38. O'zbekistonda ochiq axborot manbalariga ko'ra quyidagi kasblardan qaysi birida o'rtacha ish haqi nisbatan yuqoriroq?

39. Ikki hil buhgalteriya hisobining mavjudligi nimani bildiradi?

40. Iqtisodiyotning norasmiy qismini kuchayishi oqibatlariga qaysi javob mos keladi?

41. Oxirgi 20 yillikda qashshoq mamlakatlarda YaIMning kishi boshiga to'g'ri kelishi necha barobarga ko'paydi?

42. 1995 yildan buyon bolalar o'limi necha hissaga kamaydi?

43. AQShda monetar siyosatning samarali amalga oshirilishi asoschilaridan biri M.Fridmenning fikricha daromadlarning notengligiga sabablardan biri qaysi javobga to'g'ri keladi?

44. "Eng zo'r ish – bu yuqori haq to'lanadigan xobbi" deb ta'kidlagan shahsni ko'rsating?

45. Arablar yurishi davridagi aholi migratsiyalari (7-11 asrlar)?

46. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida yer kurrasida aholining?

47. Aholi absolyut sonining ko'rsatkichi necjta tarkibiy qismdan iborat va ular qaysilar?



48. Tug'ilganlar va o'lganlar balansi bu?

49. Immigrantlar va emigrantlar balansi bu?

50. Aholi ro'yxati qanday muddatlarda o'tkaziladi?

51. Jini koeffitsienti (jini indeksi) ?

52. Gini koeffitsentini hisoblashda daromad tartibi qanday shaklda hisobga olinadi?

53. Kuztens nisbati qanday hosil bo'ladi?

54. Dunyo iqtisodiyotiga katta ta'sir ko'rsatuvchi shaharlarga quyidagi qatorlardan qaysi biri ko'proq mos keladi?

55. Yuqori sur'atda o'sib borayorgan O'zbekiston shaharlari?

56. Hozirda respublikamizda nechta shahar mavjud?

57. Urbanizatsiya darajasining oshishi YaIM ta'sir qanday. Ochiq axborot manbalariga ko'ra Xitoy va Hindiston kabi aholi soni yuqori mamlakatlar holatidan kelib chib belgilang?

58. Urbanizatsiya muammolari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

59. Barqaror taraqqiyot maqsadlarining qaysi biri shaharlashuvga aloqador?

60. O'zbekistonda shahar aholisi ulushi 2021yildan buyon necha foiz atrofida?

61. Urbanizatsiya darajasiga salbiy ta'sir qiluvchi omillar qaysilar?

62. Iqtisodiy tarqqiyot va ta'lim yillari o'rtasidagi bo'gliqlik grafik shaklda qanday ko'rinishga ega?

63. Iqtisodiy tarqqiyot va sog'liqni saqlash harajatlari o'rtasidagi bo'gliqlik grafik shaklda qanday ko'rinishga ega?

64. Inson taraqqiyot indeksi nechta ko'rsatkichni umumlashtiradi?

65. Quyidagilardan qaysi qatorda xalqaro baholash dasturlariga to'g'ri misollar berilgan?

66. Oziq ovqat xavfsizligining nechta va qanday tarkibiy elementlari bor?

67. Yashil inqilob nima?

68. "Yashil inqilob" atamasi qachon va kim tomonidan kiritilgan?

69. Qaysi hudud yashil inqilobning "tug'ilgan joyi" va "ko'milgan joy" deb nomlangan?

70. Yashil inqilob qachon ro'y bergan?

71. Qishloq ho'jaligi transformatsiyasiga qaysi holat misol bo'la olmaydi?

72. Qishloq ho'jaligini kompleks rivojlantirishga qaysi yo'nalishlar kiradi?

73. Butun jahon uchun umumiy bo'lgan ekologik muammolarga qaysi qatorda to'g'ri misollar berilgan?

74. Ekologik kapital nima?

75. Atrof muhit holati indeksi nechta indikatorni o'z ichiga oladi?

76. Atrof muhit holati indeksi qaysi universitet tomonidan yuritiladi?

77. O'zbekistonning atrof muhit holati indeksi nechchiga teng?

78. Balans nazariyasi kim tomonidan yaratilgan?

79. Balans nazariyasining muhimlik darajasi ketmaketligidagi sohalarini ko'rsating?

80. Balans nazariyasining investitsiyalsh darajasi ketmaketligidagi sohalarini ko'rsating?

81. Bozor hajmini belgilovchi omillar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

82. Iqtisodiy rivojlanishni rejalashtirishga kim rahbarlik qiladi?

83. Nodavlat notijorat tashkilotlari yoki nodavlat tashkilotlari birinchi marta qachon tashkil etilgan?

84. Davlat xususiy sherikchiligi qanday jarayon natijasida shakllanadi?

85. Davlat xususiy sherikchiligi to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?

86. Davlat xususiy sherikchiligidan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?

87. Xalqaro kapital oqimi bu?

88. Xalqaro kapital oqimlarining iqtisodiyotga ta'siri samarali bo'lishi uchun qanday chora tadbirlar qo'llash lozim?

89. Amerika Qo'shma Shtatlarida real foiz stavkasi 7% bo'lsa, Buyuk Britaniyada real foiz stavkasi 3% bo'lsa, nima sodir bo'lishini kuzatish mumkin?

90. To'g'ridan-to'gri investitsiyalar bu ?

91. To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning asosiy shakllari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

92. Vertikal to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qanday shakllanadi?

93. Gorizontal to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qanday shakllanadi?

94. Konglomerat to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qanday shakllanadi?

95. Platforma to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar qanday shakllanadi?

96. To'lov balansining profitsitli bo'lishi rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatadi?

97. To'lov balansining defitsitli bo'lishi rivojlanishga qanday ta'sir ko'rsatadi?

98. Global moliyaviy inqiroz nima?

99. Xalqaro ko'mak: yordam mablag'larining shakllanishi manbalari?

100. Xalqaro ko'mak: yordam mablag'larining shakllanishi?



Talabalarga raqamli iqtisodiyot asoslari, amalga oshirish shakllari, iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omillar, sanoat revalyutsiyasi, raqamli bank siyosati, raqamli iqtisodiyotni biznes va ijtimoiy sohadagi o'rni va ahamiyati, internet marketing faoliyati, moliyaviy texnologiyalar, electron hukumat raqamli biznesni rivojlantirish, biznes modellari, elektron tijorat, sanoat 4.0, kriptovalyuta bozori, blokcheyn texnologiyalarni qo'llash bo'yicha yo'nalishga mos bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

**3. Raqamli iqtisodiyot fanidan YAS uchun savollar bazasi.**

1. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi qachon va kim tomonidan aniqlangan?
2. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi?
3. Iqtisodiyot tushunchasiga ta'rif qaysi biri to'g'ri?
4. Raqamli iqtisodiyotning harakatga keltiruvchi asosiy va samarali kuch – bu?
5. Raqamli iqtisodiyot faoliyatini tashkil etish uchun qanday yo'nalishdagi bilimlar talab qilinadi?
6. Raqamli iqtisodiyotga o'tish deganda?
7. Raqamli iqtisodiyotning oddiy iqtisodiyotdan farqi nimada?
8. Raqamli iqtisodiyotning ijobiy tomonlari qanday?
9. Raqamli iqtisodiyotning salbiy tomonlari qanday?
10. Raqamli iqtisodiyot freymvorki nima?
11. Raqamli iqtisodiyotda elektron pul o'tkazmalar nima?
12. Mamlakatimizda raqamli transformatsiya yordamida qaysi davlat tashkilotini tatbiq etishga olib keldi?
13. Raqamli pul bu?
14. Informatsion banking nima?
15. Raqamli pul o'tkazmalarining afzalliklari?
16. Raqamlardan foydalanuvchilar kimlar?
17. Kompaniyalarda raqamli boshqaruvning zarurligi?
18. Raqamli transformatsiya qanday vazifani bajaradi?
19. Sanoat inqilobi tushunchasi?
20. Sanoat inqilobi nechta?
21. Sanoat inqilobi 1.0 o'ziga xos xususiyatlari?
22. Sanoat inqilobi 2.0 o'ziga xos xususiyatlari?
23. Sanoat inqilobi 3.0 o'ziga xos xususiyatlari?
24. Sanoat inqilobi 4.0 o'ziga xos xususiyatlari?
25. Elektron tijorat nima?

26. Elektron tijoratning asosiy tarkibiy qismlari?

27. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi necha foizni tashkil etadi?

28. Biznes modellari nechta?

29. Biznesda B2B modeli nimani anglatadi?

30. Biznesda B2C modeli nimani anglatadi?

31. Biznesda G2C modeli nimani anglatadi?

32. Biznesda C2C modeli nimani anglatadi?

33. Biznesda C2B modeli nimani anglatadi?

34. Internet-marketing – bu?

35. Marketing so'zining manosi?

36. Elektron marketingda 4P marketing kompleksining elementlari?

37. Internet marketingining kontsepsiyalari nechta?

38. Internet marketing 1.0 qanday?

39. Internet marketing 2.0 qanday?

40. Internet marketing 3.0 qanday?

41. Marketing tadqiqoti – bu?

42. Kontent marketing-bu?

43. Ijtimoiy marketing bu?

44. Virusli marketing bu?

45. Konvergensiya bu?

46. Markazlashgan va markazlashmagan maqsadli pul fondlarini hosil qilish, jamlash, taqsimlash va qayta taqsimlash yoki ishlatish yuzasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabat bu?

47. Moliyalashtirish usullari necha xil ?

48. Korxona o'zini o'zi moliyalashtirish usuli qanday?

49. Moliyalashtirish nima degani?

50. Reinvestitsiya qilish bu -?

51. Investitsiya bu?

52. Bulutli hisoblash texnologiyasi bu?

53. Kraudfanding ishlash prinsplari?

54. Kraudsorsing?

55. Autsorsing bu?

56. Moliyaviy xizmatlarda innovatsiyalar korxonaga qanday yordam beradi?

57. O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishini to'xtatib turgan bir qator muammolar qaysi javobda berilgan?

58. Raqamli iqtisodiyot rivojlangani sari nimaga ta'sir qiladi?

59. Biznesda yani ishlab chiqarish jarayonidagi rentabellik nima?

60. Bulutli hisoblash texnologiyasi necha xil bo'ladi?



61. Xususiy bulut (private cloud)?

62. Ommaviy bulut (public cloud)?

63. Gibrid bulut (hybrid cloud)?

64. Big Data-bu?

65. Katta ma'lumotlar qanday tasniflanadi?

66. Katta ma'lumotlar necha xil usulda tasniflanadi?

67. SWIFT xabarnomasi quyidagi tuzilishga ega bo'ladi?

68. SWIFT (Society for worldwide Interbank Financial Telecommunications) qaysi yilda tashkil etilgan?

69. Buyumlar Interneti (Internet of Things – IoT) – bu?

70. Kasblarning qancha foizi avtomatlashtirish tufayli yo'qolishi mumkin?

71. Elektron raqamli imzo nima?

72. Elektron hamyon nima?

73. Quyidagilardan qaysi biri bulutli hisoblash uchun eng muhim hisoblanadi?

74. Qaysi arxitektura darajasi bulutli hisoblashda orqa tomon sifatida ishlatiladi?

75. Sun'iy intelekt-(Artificial Intellect) turlari qaysi qatorda to'g'ri berilgan?

76. Nima uchun IoT (buyumlar interneti ) muhim?

77. Raqamli banking nima?

78. SWIFTning protsessing mexanizmiga quyidagi vazifalarni bajarish yuklatiladi?

79. Kriptovalyuta birjalarining necha xil turi mavjud?

80. Kriptovalyuta birjalarining turilari ko'rsatilgan qatorni toping?

81. Kriptovalyutalarni uy sharoitlarida bir nechta usullar vositasida ishlab topish mumkin bular?

82. Blockchainga to'g'ri ta'rif berilgan javobni belgilang?

83. Sun'iy intellect (Artificial intelligence), ni taqdim qiladigan texnologiyalar to'g'ri berilgan javobni belgilang?

84. Raqamli iqtisodiyot rivojlangan sari qanday ko'nikmalarga bo'lgan talab oshib bormoqda?

85. Sanoat 4.0 dasturi jahon iqtisodiyoti tarmoqlarining nechta yo'nalishlarda amalga oshirilishi belgilab o'tilgan?

86. Bulutli texnologiyalar nima?

87. AKT tarkibiy qismlariga kiruvchi elementlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?

88. Resurslardan foydalanish samaradorligining oshishi nima deyiladi?

89. Raqamli iqtisodiyot kichik biznes vakillariga qanday yengilliklarni yaratadi?

90. 2030-yilga borib AKT ning YAIM dagi ulushini necha foizga yetkazish belgilangan?

91. Moliya sektorini tubdan o'zgartirgan raqamli iqtisodiyot yo'nalishi to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?

92. Raqamli iqtisodiyotning an'anaviy iqtisodiyotga salbiy ta'sirlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang ?

93. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish omillari to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?

94. Sanoat 4.0 tufayli bir qancha ishlar robotlar asosida bajariladi, buning natijasida insonlar qanday ishlar bilan mashg'ul bo'lishadi?

95. Sanoat 3.0 boshlangan yil to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang?

96. Raqamli demokratiya nima?

97. Elektron hukumat vazifalari bu?

98. Raqamli platformalar turlari necha xil?

99. Raqamli platformaga tarif bering?

100. Raqamli transformatsiya bu?

Talabalarga iqtisodiyotning individual agentlari, masalan, uy xo'jaliklari, kompaniyalar va bozorlardagi iqtisodiy qarorlarni o'rganadigan iqtisodiy nazariyadir. Mikroiqtisodiyot fanni o'qitishning maqsadlari, asosan, talabalarga iqtisodiy jarayonlar, qaror qabul qilish mexanizmlari va resurslarni samarali taqsimlashni tushuntirishga qaratilgan xamda ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

**4. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanidan YAS uchun savollar bazasi**

1. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanining asosiy vazifasi nimadan iborat?
2. Qaysi iqtisodchi erkin bozor tamoyillarini ilk bor targ'ib qilgan?
3. Antik davrda qaysi yunon faylasufi iqtisodiy fikrlarni ilgari surgan?
4. Qadimgi Hindiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qaysilar edi?
5. "Davlat" va "Qonunlar" nomli mashxur ijtimoiy-iqtisodiy asar kimga tegishli?
6. "Artxashastra" qaysi davlatning iqtisodiy g'oyalarga kiradi ?
7. Manufaktura qaysi so'zdan olingan va ma'nosi nima?
8. "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot" asari kimning qalamiga mansub?
9. Savdoda ayriboshlash vositasi sifatida "Qog'oz pullar" ko'rinishida qaysi davlat ishlab chiqa boshlagan?
10. Qadimgi Misr iqtisodiyoti nimaga asoslangan edi?



11. Qadimgi Hindistonda dehqonchilik qaysi daryolar atrofida rivojlangan?
12. Mesopotamiyadagi ilk iqtisodiy qonunlar qaysi davlatga tegishli?
13. Rim imperiyasida qaysi soha iqtisodiyotning eng rivojlangan qismi bo'lgan?
14. "Ko'zga-ko'z, Tishga-tish" tamoili qaysi qadimgi yozuv ta'limotida aks etgan?
15. .... Bolqon yarim orolining janubiy qismida, O'rta Yer dengizining sharqiy sohilida joylashgan. (Gapni to'ldiring)?
16. *"Iqtisod" (Oeconomicus), "Qo'mondonlik san'ati" (Cyropaedia)* asarlari qaysi yunon faylasufi qalamiga mansub?
17. Platon *"Ideal davlat"* g'oyasiga berilgan ta'rifni belgilang?
18. Qadimda birinchi bor kreditlar bo'yicha foizlar belgilash qaysi shahar-davlatlarda paydo bo'lgan?
19. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari hududida faoliyat ko'rsatgan faylasuf, shoir va tabiatshunos, ilohiyotchi olim kim?
20. O'zbekiston tarixidagi ilk *yozma manbalardan* biri bo'lib, xalqning *ijtimoiy-siyosiy va diniy hayotini* o'rganishda yordam beradi. Gab qaysi manba haqida ketyabdi?
21. Qadimgi Hindistonda savdo munosabatlari qayerlarga qadar yetib borgan?
22. Qadimgi Misr hukmdorlari qanday nomlangan?
23. Hindistonda qaysi asar, *davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va moliya* bo'yicha o'z davrining eng muhim ilmiy manbasi sifatida qabul qilingan?
24. Ibn Xoldun shahar aholisining zichligi qaysi jihatga ta'sir qilishini ta'kidlagan?
25. «Avesto»da: nimalar eng og'ir gunoh hisoblanadi?
26. Mulkni garovga qo'yish, meros olish, savdo va qarz, oilaviy va nikoh munosabatlari, mehnat munosabatlari va ishchilar huquqlari, tibbiyot va sog'liqni saqlash qonunlari birinchilardan bo'lib qaysi shahar-davlatlarda paydo bo'lgan?
27. Demokrit o'z zamonasida *qanday faoliyatlarni* rivojlantirish haqida yozgan?
28. *"Ideal davlat"* g'oyasida boylik va resurslarni teng taqsimlashni yoqlagan Yunon faylasufini belgilang?
29. Ehromlar o'lkasini iqtisodiy va siyosiy mustaqillikka olib chiqqan milliy qahramonini belgilang?
30. Mesopotamiya, hozirgi qaysi davlatlarning ayrim qismlarini o'z ichiga olgan?
31. Qadimgi Rimdagi iqtisodiy qarashlarda qullarning roli qanday edi?
32. Qaysi yunon faylasufi iqtisodiyot haqida birinchi bo'lib ilmiy fikrlarni ilgari surgan?
33. Qadimgi Sharqda savdo yo'llari orqali qaysi mahsulotlar keng tarqalgan edi?
34. U...iqtisodiy faoliyatni ikki turga ajratdi (ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan) va xresaustik (boylik to'plashga yo'naltirilgan) gap qaysi faylasuf haqida ketyabdi?

35.A.Smit *"pulga"* qanday ta'rif bergan?
36.Hindistonda kim tomonidan olib borilgan islohotlar hukumat tomonidan qabul qilingan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan edi?
37."Oykos – uy xo'jaligi Nomus- qonun" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
38.Aristotelning iqtisodiy fikriga ko'ra, "tabiiy boylik" nimaga asoslangan?
39."Soliqlarni haddan oshirish davlatning zaiflashishiga olib keladi, xalqning farovonligini saqlash esa davlatni mustahkamlaydi!" Ushbu ta'rif qaysi davlat hukmdoriga tegishli?
40.Iqtisodiy ta'limotlar tarixi fanini o'rganish orqali nimalarga erishish mumkin?
41.Aristotel iqtisodiyotni qanday ikki turga bo'lgan?
42.Platonning *"Ideal davlat"* asarida iqtisodiyot qanday tartibga solinishi kerakligi haqida qanday qarash mavjud?
43.*Rim imperiyasida* iqtisodiyotni tartibga solish qaysi yo'nalishda bo'lgan?
44.*"Siyosat" (Politika), "Nikomax axloqi" (Nicomachean Ethics)* asarlari qaysi yunon faylasufi qalamiga mansub?
45.Hindistonda kim tomonidan olib borilgan islohotlar hukumat tomonidan qabul qilingan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga asoslangan edi?
46.*"Daryolar orasidagi yer"* degan ma'noni anglatadigan qadimgi shahar-davlatlardan birini belgilang?
47.*Ko'hna Bobil* eng muhim *iqtisodiy resurs* va *mulkchilik* tizimi nimaga asoslangan edi?
48.Qadimda *Savdo, soliq, kredit va qarzlar* bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy masalalar belgilab qo'yilgan qatiy qonunlar qaysi manbaga tegishli bo'lgan?
49.*"Qullar odatda urushlarda asir olingan yoki qarz tufayli qullikka tushgan kishilar edi"* Gap qaysi qadimgi davr svilizatsiyasi haqida ketyabdi?
50.*Ko'hna Bobil* davrida kimlar mehnat tizimining asosiy iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda katta rol o'ynagan?
51.*Misr yerlarining necha foizi* cho'ldan iborat?
52.*Ibn Xoldun* shahar aholisining zichligi qaysi jihatga ta'sir qilishini ta'kidlagan?
53.Qaysi yunon faylasufi iqtisodiyot haqida birinchi bo'lib ilmiy fikrlarni ilgari surgan?
54.Qadimgi Sharqdagi iqtisodiy qarashlar asosan qaysi sohalarda rivojlangan?
55.*"Ko'rinmas qo'l"* konsepsiyasining asoschisi kim?
56.Arab mamlakatlaridagi dastlabki g'oyalar kimga tegishli?
57.*Platon* aholini nechta toifaga ajratgan?
58.Platonning *"Ideal davlat"* haqidagi iqtisodiy fikri nimani o'z ichiga oladi?
59.*Fiziokratlar* nazariyasining asosiy g'oyasi nimaga asoslanadi?
60.*Klassik iqtisodiyot* nazariyasining asoschisi kim hisoblanadi?
61.Iqtisodiy ta'limotlar tarixining amaliy ahamiyati nimadan iborat?



62.Misr qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan o'z ehtiyojlarining necha foizini ta'minlaydi?
63."Arthashastra" asari kim tomonidan yaratilgan?
64.Konfutsiy ta'limoti "jen" "li" tamoyillariga eng to'liq ta'rifni belgilang?
65.Qadimgi Bobil iqtisodiy tizimida qanday to'lov vositasi keng qo'llanilgan?
66.Qaysi ta'limotda, *"Yerga yaxshi, sog'lom urug'lar sepishdan ortiq savob ish yo'q"* yerga nisbatan ulug'lik eng ko'p takidlangan?
67.Iqtisodiy ta'limotlar tarixi qaysi davrdan boshlab rivojlangan?
68.Qadimgi Hindiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlari qaysilar edi?
69.Aristotelning iqtisodiy fikrlariga ko'ra, "pul" qanday ahamiyatga ega?
70.Qadimgi Xitoy iqtisodiy fikrlari asosan qaysi falsafiy ta'limotga asoslangan edi?
71.Yevropada qaysi Islom dunyosidagi eng yirik va nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri hisoblanadi?
72.Qur'oni Karimda qanday iqtisodiy me'yorlar ta'kidlanadi?
73.Ilk yozuv qayerda ixtiro qilingan?
74.Boylikni maqsad deb emas, balki hayotda yaxshi yashash uchun zarur bo'lgan vosita sifatida baholagan *Yunon faylasufini* belgilang?
75.Xitoyning eng ta'sirli falsafiy oqimlaridan biri Konfutsiyning "Jen" ta'limoti keng ko'lamli ma'nosini belgilang?
76.Misr iqtisodiyotida bugungi kunda eng ko'p daromad keltiruvchi soha qaysi?
77.Temur davrida chetdan keltirilgan tovarlar ustiga qancha foiz qo'shib sotishga ruxsat etilgan?
78.Markaziy Osiyo hududida faoliyat ko'rsatgan *ilohiyotchi, faylasuf, shoir va tabiat-shunos* olim kim bo'lgan?
79.*Merkantelizm* — italyancha «mercante» so'zidan olingan bo'lib, qanday ma'noni anglatadi?
80.Ijtimoiy adolat, axloqiy qadriyatlardagi qarashlar, xususan arab mamlakatlaridagi
81.Neoklassik yo'nalish tarafdorlari uzlarining iqtisodiy qarashlarida qaysi nazariyani asosiy deb hisoblaydi?
82.«Artxashastra» asari qachon yaratilgan va undagi muhim iqtisodiy g'oyalar.
83.Ksenofont pulning qaysi vazifalarini asosiy deb bilgan.
84.Klassik iqtisodiy maktab vujudga kelishi qaysi davrga mansub?
85.V.Petti renta deganda nimani tushungan?
86.Frantsiyada klassik iqtisodiy maktab asoschisi kim?
87.«Ekvivalent ayirboshlash» nazariyasining mohiyati nimada?
88.Smit va D.Rikardo qaysi iqtisodiy maktabning yirik vakillari hisoblanadi?
89.S.Sismondining fikricha siyosiy - iqtisodning mavzui (predmeti)…
90.Djeyms Mill yashab ijod qilgan yillar.

91.Avstriya maktabi qo'llagan usul.

92.N.V.Seniorning yashab ijod qilgan yillari.

93.G.CH.Keri qaysi davlat vakili?

94.G.SHmollerning qaysi iqtisodiy asarini bilasiz?

95.A.Brentanoning asosiy iqtisodiy asari nima deb nomlanadi?

96.Asosiy marjinalistik tushuncha nimadan iborat?

97.J.B.Klark ta'limotidagi alohida o'rin olgan qonun qanday nomlanadi?

98.Hozirgi zamon neoklassik yo'nalish asoschisi kim?

99.Monetarizm kontseptsiyasi nechanchi yili ilgari surilgan?

100. "Sof" ta'limot vakillarining fikricha jahon bozorida............ mavjud.

Davlat va hukumatlarning iqtisodiy tizimni boshqarish, rivojlantirish, resurslarni samarali taqsimlash, iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlash uchun amalga oshiradigan strategiya va chora-tadbirlarini o'rganishdan iborat. Bu fan, iqtisodiyotning turli sohalaridagi siyosiy qarorlar va ularning makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy ta'sirlarini tahlil qiladi. Iqtisodiy siyosat, shuningdek, davlatning soliq, budjet, savdo, valyuta va boshqa iqtisodiy sohalardagi siyosatini belgilaydi va ularning jamiyat farovonligiga ta'sirini aniqlashni maqsad qiladi.

**5. Iqtisodiy siyosat fanidan YAS uchun savollar bazasi.**

1. … bu iqtisodiyoga ta'sir o'tkazish va uni boshqarish uchun mo'ljallangan harakatlar va qarorlar majmuidir?
2. Iqtisodiy siyosatning 2 asosiy tarkibiy qismlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?
3. Davlatlar iqtisodiyoti o'z maqsadiga ko'ra necha turga bo'linadi?
4. Iqtisodiy siyosatning bosh maqsadi – bu?
5. Qaysi davlat iqtisodiy tizimining bosh maqsadi "ijtimoiy farovonlik" ni ta'minlashdan iborat?
6. Iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda, hukumatlar odatda ushbu qarorlar bilan bog'liq xatarlarni (risklar)?
7. Agar bir davlatning eksportlari 1 000 000 $, importlari 1 500 000 $ va yalpi ichki maxsuloti 2 500 000 $ bo'lsa, savdo erkinligi indeksini toping?
8. Ishchi kuchi mobilligi – bu?
9. Davlatlar iqtisodyotlarining o'zaro bog'liqligi masalalarida chegara effekti deganda nima tushuniladi?
10. Bir davlat investorlarining, masalan AQSH investorlarining, ular uchun Yevropa fond bozorlari ochiq bo'lishiga qaramay, asosiy investitsiyalarini mamlakat ichidagi firmalarga kiritish odati iqtisodiy siyosatda nima deb ataladi?
11. Ijtimoiy tovar nima?



12. Ijtimoiy tovarlar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?
13. Dengiz mayog'i (dengizlarda kemalarga to'g'ri yo'lni topishda yordam beradigan minora chiroq) – bu ?
14. … bu o'yin nazariyasida tahlil qilingan o'yinning standart namunasi bo'lib, nima uchun ikkita mutlaqo oqil shaxslar, garchi bu ularning manfaatlariga mos bo'lsa ham, hamkorlik qilmasligini ko'rsatadi?
15. 2008 yilda Irlandiya hukumati mamlakat ichidagi omonatlarni kafolatlash fondiga ajratmalarni oshirish bo'yicha qaror qabul qildi. Buning natijasida, Yevropaning boshqa hududlaridagi omonatchilar o'z omonatlarini Irlandiyaga olib o'ta boshlashdi. Oxir oqibat Yevropaning boshqa hukumatlari xam, omonatlarni mamlakatdan chiqib ketishini oldini olish uchun omonatlar kafolatlash fondiga ajratmalar miqdorini oshirdi. Bu kabi xolat, yani bir davlatda chiqarilgan makroiqtisodiy qarorlarning qo'shni davlatlar iqtisodiyotiga ta'sir qilishi… deb ataladi?
16. Davlatlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik sharoitida xarakatlarni muvofiqlashtirishni kimlar yoki nimalar amalga oshirishi mumkin?
17. Dunyo miqyosida xalqaro tashkilotlar mavjud bo'lishligi zarurati nimadan kelib chiqadi?
18. Fiskal siyosatning asosiy funksiyalari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?
19. … bu yalpi talabga ta'sir o'tkazish va iqtisodiyotni umumiy muvozanat sari yo'naltirish maqsadida davlat xarajatlari va soliqqa solish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilishdir?
20. Fiskal siyosatning ikki asosiy vositalari qaysilar?
21. Iqtisodiyotning barqaror o'sish darajasi deganda nimani tushunasiz?
22. Taniqli iqtisodchilarning tahlil markazi iqtisodiy tanazzul paytida yig'ilishdi. Ko'plab raqobatdosh g'oyalar munozara uchun taqdim etildi Sizningcha , iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun qaysi strategiyani tanlash eng to'g'ri yechim?
23. Demokratik davlatda saylov mavsumi. Bo'lajak Prezident, agar saylansa, o'zgartirishga umid qiladigan aniq masalalar haqida gapirmoqda. Sizningcha qaysi javobda u ta'sir o'tkazishi mumkin bo'lgan iqtisodiy soxalar ko'rsatilgan?
24. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasida… bog'liqlik bor?
25. Sevimli professoringiz ishsizlik va inflyatsiya ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan xamda iqtisodiy turg'unlikk xolatini tasvirlayapti. Ushbu holatni bir so'z bilan ifodalang?
26. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadigan qanday iqtisodiy vosita, davlat bir vaqtning o'zida past inflyatsiya va past ishsizlikka ega bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatadi?

27. AQSHdagi Buyuk Depressiya davrida qaysi iqtisodiy model mashhur bo'ldi?

28. Muayyan jamoadagi kichik biznes egalari hukumat faolligining o'sishidan xavotirda, chunki ularning fikricha bu xolat bizneslarini rivojlantirish uchun zaruriy bo'sh mablag'lar hajmini kamaytirgan. Ushbu effektning boshqa nomi nima?

29. Iqtisodiy turg'unlik davrida davlat, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun, soliqlar stavkalarini pasaytirish bo'yicha qaror qabul qildi. Bu siyosat qanday nomlanadi?

30. … bu mamlakatning umumiy iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish, vazifalarini bajarish uchun tuziladigan, daromadlar va xarajatlar tarkibidan iborat kelajakdagi moliyaviy rejasi, tasdqilanadigan hujjat?

31. … davlatning davlat qarzlari bo'yicha foizli xarajatlardan tashqari barcha xarajatlarini o'z ichiga oladi?

32. Fiskal balans nima?

33. Byudjet profitsitini to'g'ri ko'rsatuvchi javobni toping?

34. Davlat qarzi nima?

35. Tashqi qarz – bu ?

36. Davlat byudjeti taqchilligini (defitsitini) moliyalashtirish uchun davlat, quyidagi chora-tadbirlardan qaysi birini qo'llashi mumkin?

37. Faraz qilaylik, O'zbekiston 5 yildan beri, xalqaro tashkilotlardan va chet-el banklaridan qarz olib kelmoqda. Tashqi qarzning ortishi davlat uchun faqat ziyon. Ushbu jumla qanchalik to'g'ri?

38. Yevropa ittifoqi standartlari bo'yicha davlat qarzi chegarasi YIM (yalpi ichki maxsulot)ning …% gacha byudjet defitsiti chegarasi YIMning …% gacha bo'lishligi yomon holat deb baholanmaydi?

39. Aytaylik, O'zbekistonda keyns ko'paytuvchisi 2 ga teng. Bu xolatda, agar davlat talabni rag'batlantirish uchun 1 trln lik davlat xarajatlarini amalga oshirsa bu YIM (yalpi ichki mahsulot) ga qanday ta'sir ko'rsatadi?

40. Faraz qilaylik, davlat yalpi talabni rag'batlantirish uchun o'z fuqarolariga 1 000 $ miqdorida bir martalik pul berdi. Agar fuqarolar, bu to'lovning 50% ni iste'mol qilsalar va 50% ni saqlab qo'ysalar, bu davlatdagi keyns ko'paytuvchisini toping?

41. ... ga ko'ra fiskal siyosat hech samarasiz chunki odamlar olingan daromadini to'lig'icha saqlab qo'yadi (kelgusi yillar soliq ko'tarilishidan xarajatlarni qoplash uchun)?

42. Davlat harajatlariga asoslangan fiskal siyosat, soliqlarni ko'tarilishiga asoslangan fiskal siyosatdan ko'ra YIM ga kamroq salbiy ta'sir qiladi?

43. Pul – bu?



44. Xozirgi barcha pullar (qog'oz va elektron)… yani ta'minlanmagan pullardir?

45. Iqtisodiyotdagi pul taklifi orqali iqtisodiy siklni boshqarish, yoki barqaror iqtisodiy o'sishni taminlash – bu ?

46. M0 pullar qanday pullar?

47. O'zbekistonda Monetar Siyosatni yuritish uchun vakolatli organ?

48. Monetar Siyosatning bosh maqsadi nima?

49. Asosiy foiz stavkasi, ochiq bozor operatsiyalari va banklar zaxira talablari – bu?

50. Iqtisodiy turg'unlik sharoitida, Markaziy Bank asosiy foiz stavkasini tushirishni va bu orqali iqtisodiyotda pul taklifini oshirishi… deb ataladi?

51. Doimiy daromadlar nazariyasiga ko'ra?

52. Milton Fridmanning fikricha inflyatsiya – bu ?

53. Pulning Miqdor Nazariyasi formulasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

54. Davlatning iqtisodiyoti juda tez sur'atda o'sib bormoqda. Inflyatsiya baland va ishsizlik past darajada. Iqtisodiyotni "sovitish" uchun davlat qanday chora ko'rishi mumkin?

55. Tijorat banklari iqtisodiyotdagi pul taklifiga ta'sir o'tkaza oladilarmi?

56. Pulning Miqdor Nazariyasi ga ko'ra inflyatsiya darajasi…ga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq?

57. Narxlarning tushishi… deb ataladi?

58. Agar Markaziy Bank cheklovchi monetar siyosatni qo'llayotgan bo'lsa va tijorat banklari majburiy zaxirasiga talabni 20% deb belgilasa. Tijorat banki omonatchilar qo'ygan 1 000 000 so'm mablag'ning qanchasini kredit qilib ajratishi mumkin?

59. Siz plastik kartochkangizdan 1 000 000 so'm restoranda ovqatlanish uchun sarfladingiz. Bu iqtisodiyotdagi umumiy pul taklifiga ta'sir ko'rsatadimi yoki yo'q?

60. Markaziy bank kengayuvchi monetar siyosatni qo'llasa bu dollar aktivlarining taklifiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

61. Tijorat banklari balansi formulasi to'g'ri ko'rsatilgan javobni tanlang?

62. Agar so'mning dollarga nisbatan kursi 10 700 so'm, Yevroga nisbatan kursi 12400 so'm bo'lsa demak dollarni yevroga nisbatan kursi taxminan?

63. Moliya bozorlari nechchiga bo'linadi?

64. Kapital bozorida nimalar bilan savdo qilinadi?

65. Davlat bir paytning o'zida uch iqtisodiy maqsadlarga – qat'iy belgilangan valyuta kurslari, mustaqil monetar siyosat va kapital mobilligi-erisha olmasligi nima deb ataladi?

66. Universal bankning berilgan kreditlari ichida kredit qaytmaslik yuqori bo'lgan kreditlari mavjud. Sizningcha Universal bank bankrotlikni oldini olish uchun qaysi choranі qo'llagani ma'qul?

67. Valyuta ayirboshlash kursi rejimlari to'g'ri ko'rsatilga javobni toping?

68. Valyuta bozorida eng ko'p tuziladigan bitim turini toping?

69. Do'stiz Abduraxmon amazon.com dan planshet sotib oldi. Buning mamlakat to'lov balansiga ta'siri bormi yoki yo'q?

70. Abdusattor Rossiyaga ishlagani ketdi va bir oydan so'ng oilasiga 100$ pul jo'natdi. Bu o'tkazma quyidagilarning qaysi biriga ta'sir qiladi?

71. Davlat valyuta ayirboshlash kursini qat'iy belgilab qo'yish bilan birga monetar mustaqillikni saqlab qolmoqchi. Buning uchun davlat nimaga to'siq qo'yishi kerak?

72. Soliqqa solish ob'yektlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping?

73. QQS (qo'shilgan qiymat solig'i) qanday soliq turiga kiradi?

74. Daromadning (soliq solinadigan bazaning) oshishiga mos ravishda soliq stavkalari oshib borishiga ... deb aytiladi?

75. Tushirib qoldirilgan so'zlarni toping. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga asosan soliqqa solish prinsiplari : majburiylik, adolatlilik, aniqlilik va hamkorlik ?

76. "O'ta baland soliqlar soliqlarni o'ldiradi" iborasi qaysi nazariya ma'nosini ifodalaydi?

77. Insonlar migratsiyasining birinchi va eng asosiy sababini toping?

78. Insonlar migratsiyasining sabablari noto'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?

79. Ijtimoiy Siyosatning asosiy maqsadlariga qaysi javob to'g'ri kelmaydi?

80. ... bu fuqarolar va oila ho'jaliklarini kutilmagan iqtisodiy qiyinchiliklardan himoya qilishdir?

81. Kishilar kambag'alligi sabablari qaysilar?

82. Mamlakatlarda va mamlakatlararo daromadlar tengsizligini o'lchovchi ko'rsatkich?

83. Pandemiya yoki og'ir kasallik tufayli oila harajatlarining keskin oshib ketish?

84. "Davlat faqat ijtimoiy tovarlar ta'minoti, qonun ustuvorligini ta'minlash va salbiy "externalities" ni bartaraf etish bilan chegaralanishi kerak" degan kontsepsiyaga nom bering?

85. 18- asrda boshlangan I-sanoat revolyutsiyasi ______________ bilan birga yangi ______________ ga olib keldi?

86. Kelajak avlodlar uchun atrof-muhit sifatini saqlab qolgan holda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish bu - ?



87. Atrof-muhit muhofazasi siyosatida ekologik ta'siri muqarrar faoliyatni taqiqlash nima deb ataladi?

88. Atrof-muhit muhofazasi sohasida halqaro hamkorlik bo'yicha mashxur bitimlar ko'rsatilgan qatorni toping?

89. Atrof-muhit muhofazasi bo'yicha qabul qilingan 2 (Kyoto protokoli va Parij kelishuvi) bitimning eng asosiy farqi nimada?

90. Kelajak uchun ko'rsatmalardan (forward guidance) foydalanadigan markaziy bank, ehtimol, quyidagilarning qaysilariga ta'sir o'tkazishga harakat qiladi?

91. Pul-kredit siyosatining qaysi vositasi banklar markaziy bankdan qarz oladigan foiz stavkasini o'zgartirishni o'z ichiga oladi?

92. Inflyatsiyani targetlash - bu markaziy banklar tomonidan asosan nimani nazorat qilish uchun qo'llaniladigan strategiya hisoblanadi?

93. Fillips egri chizig'i quyidagi ikkisi o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatadi?

94. Tariflar yoki kvotalar kabi savdo to'sig'ining maqsadi nima?

95. Mamlakat ichidagi daromadlar tengsizligini o'lchash uchun qaysi iqtisodiy ko'rsatkichdan foydalaniladi?

96. Laffer egri chizig'i nimaning optimal darajasi mavjudligini ko'rsatadi?

97. Pul-kredit siyosatida miqdoriy yumshatishdan maqsad nima?

98. Mamlakatda quyidagi hollarda savdo profitsiti yuzaga keladi?

99. Teylor qoidasi quyidagilar bilan bog'liq?

100. Fiskal siyosatning asosiy maqsadi nima?

**Yakuniy attestatsiya sinovlarida majburiy fanlar bo'yicha bitiruvchilar bilimini baholash**
**MEZONLARI**

Bitiruvchi kurs talabalari yakuniy attestatsiya sinovlari natijalarini baholash, Qo'qon universiteti Kengashining 2024-yil 19-iyundagi 4-son bayoni bilan tasdiqlangan **"Akademik baholash tartibi"** mezonlari asosida amalga oshiriladi.

1. Bitiruvchi kurs talabalari uchun o'tkaziladigan yakuniy attestatsiya sinovlari o'zbek va rus tillarida o'tkaziladi.
2. Bitiruvchi kurs talabalarining yakuniy attestatsiya sinovlari belgilangan majburiy fanlar bo'yicha test sinovi shaklida o'tkaziladi. Bunda, test savollar 5 xil variantda tuziladi.
3. Test sinovi variantlari 50 ta test savolidan va har bir savolga ehtimoliy 4 javobdan iborat bo'ladi.
4. Yakuniy attestatsiy sinovlari natijalarini baholashda quyidagi jadvaldan foydalaniladi:

| Baho | Foiz | GPA |
|---|---|---|
| A+ | 95-100 | 4,5 |
| A | 90-94 | 4 |
| B+ | 80-89 | 3,5 |
| B | 70-79 | 3 |
| C+ | 65-69 | 2,5 |
| C | 60-64 | 2 |
| F | 0-59 | 0 |

Bunda, asosiy baholash mezoni sifatida foiz hisobidan foydalaniladi.

5. 0 – 59 oralig'ida ball to'plagan talabalar yakuniy attestatsiya sinovlaridan o'ta olmagan hisoblanadi. Yakuniy attestatsiyasi sinovidan o'ta olmagan shaxs o'qish muddati tugagandan so'ng, arizasiga muvofiq yakuniy attestatsiyasi sinovini keyingi yillarda qayta topshirish huquqiga ega. Bunda oliy ta'lim muassasasi rektori (direktori) shaxsni yakuniy attestatsiyasi sinovini qayta topshirishga qo'yish bo'yicha buyruq chiqarishi lozim bo'ladi.



## ASOSIY ADABIYOTLAR RO'YXATI


1. Salimov B.T., Yusupov M.S., Ishnazarov A.I. Mikroiqtisodiyot-2. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2019. –198 b.
2. Ergashev E.I. va boshq. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot. Darslik. –T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – 680 b.
3. M.Butaboyev, F.Mulaydinov va boshqalar. Raqamli iqtisodiyot. Darslik, 2-nashr. Innovatsion rivojlanish nashriyot - matbaa uyi, Teshkent - 2021 y. 606-b.
4. S.S.Gulyamov , R.X.Ergashev, S.N.Xamrayeva. Raqamli iqtisodiyot - (o'quv qo'llanma).- T. 2020. 368-b.
5. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi – I (Iqtisodiy tarix). Uslubiy qo'llanma. Muminov N.G., Xolmatjonov F.M. –T.: "Universitet", 2022, 76-bet.
6. "Iqtisodiy ta'limotlar tarixi". Darslik. Sh.H.Tashmatov –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi». 2019 –504b.
7. Clayton M Christensen, Efosa Ojomo, Karen Dillon, The Prosperity paradox, Harper Business; Illustrated edition January 15, 2019. 368 pages.

## QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Быков А. Ю. Цифровая экономика и будущее золотого стандарта. Очерки по истории мировой цифровой экономики. — Москва: Проспект, 2019. — 228 с.
2. Microeconomics: Theory and Applications, 13th Edition, Edgar K.Browning, Mark A. Zupan, 2020, 592 Pages.
3. Salimov B.T., Yusupov M.S., Ishnazarov A.I. Mikroiqtisodiyot-2. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2019. –198 b.
4. Ergashev E.I. va boshqalar, Makroiqtisodiyot. Toshkent Iqtisod- Moliya. 2019, 280 bet.